

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 7-dekabr, № 254 (8877) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TOSHKENT VILOYATINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YIRIK LOYIHALAR IZCHIL DAVOM ETTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-dekabr kuni Toshkent viloyatiga tashrif buyurib, transport, energetika va turizm sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli loyihalar bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent — Xo‘jakent yo‘nalishida yangi elektropoyezdni ko‘zdan kechirdi.

Prezidentning o‘tgan yil 10-oktyabrdagi qaroriga muvofiq “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati transformatsiya qilinmoqda. Jamiyat tarkibida infratuzilma, vagon xizmati, yo‘lovchi tashish kabilar bilan shug‘ullanuvchi 6 ta mustaqil korxona ish boshladi.

Poyezdlar parki ham kengaytirilmoqda. Ayniqsa, yo‘lovchi tashishda aholi va turistlarga qulayliklar oshirilmoqda. Yangi poyezdlar olib kelindi. Toshkentdan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarimizga “Afrosiyob” elektropoyezdlarining qatnovlari ko‘paytirildi.

O‘tgan davrda yurtimizda 3 ming kilometrdan ziyod temir yo‘llar elektrlashtirildi. Buxoro — Urganch — Xiva temir yo‘l tarmoqlarini elektrlashtirish yakuniy bosqichda. Miskin — Nukus yo‘nalishida jadal davom ettirilmoqda. Toshkent atrofida ham elektrlashgan yo‘l qurilib, poyezdlarni o‘tkazish imkoniyati 30 foizga oshdi.

Endi Toshkent — Xo‘jakent yo‘nalishida yangi elektropoyezd qatnovga qo‘yilmoqda. Davlatimiz rahbari ushbu poyezdga chiqib, harakatlanishi va qulayliklarini ko‘rdi.

Vagonlar shinam va yorug‘, yo‘lovchilar uchun qulay. O‘rindiqlar soni 586 ta. Ma’lumot tablolari va yong‘in xavfsizligi tizimi o‘rnatilgan. Poyezd soatiga 120 kilometrgacha tezlikka chiqa oladi. Har bir tarafga kuniga uchtadan qatnov yo‘lga qo‘yiladi.

Safar chog‘ida davlatimiz rahbari temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, yo‘lovchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, temir yo‘llarni elektrlashtirish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha mutasaddilarning hisobotlarini tingladi.

Toshkent va Xo‘jakent oralig‘idagi temir yo‘lga tutash maydonlarni 2025-yilgi renovatsiya dasturiga kiritib, ularni tartibga keltirishga ko‘rsatma berildi. Yo‘nalishdagi egri qismlarni to‘g‘ri qilib qayta qurish orqali kunlik ekspress poyezdlar qatnovini ko‘paytirish va ko‘proq yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun sharoit yaratish topshirildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar ham muhokama qilindi. Temir yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirish, suv resurslari cheklangan hududlarda xorijiy tajriba asosida qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni ekish, chet eldan faqat mahalliy iqlimimizga mos bo‘lgan ko‘chatlarni keltirish zarurligi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumaniga tashrif buyurib, bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Xushmanzara tog‘lar bag‘ridagi bu hududning drayveri, albatta, turizm. So‘nggi yillarda infratuzilma yaxshilanib, yilning barcha faslida maroqli hordiq chiqarish imkoniyati yaratildi. Dam olish, sog‘lomlashtirish, chang‘i, sayohat, umumiy ovqatlanish majmualari barpo etildi. Eski sanatoriy va bolalar oromgohlari yangilandi.

Xususan, besh yil avval tumanda 2 ming 240 o‘rinli 26 ta maskan bo‘lgan bo‘lsa, shu davrda sohaga 2 trillion so‘mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ko‘p o‘ringa ega 59 ta yirik turizm inshooti ishga tushirildi. Asosiy avtomobil yo‘li ta’mirlanib, qo‘shimcha yo‘llar qurildi.

Bularning natijasida turizm jadal rivojlandi, tashrif buyuruvchilar 12 barobarga oshdi. Jumladan, besh yil oldin Bo‘stonliqqa yiliga 850 ming sayyoh kelgan bo‘lsa, bu yil 11 oyning o‘zida 12 million nafar tashrif buyurgan.

Bu sur’at izchil davom etmoqda. Davlatimiz rahbari shunday loyihalar bilan tanishdi.

Chirchiq daryosi bo‘yida “Chorvoq darvozasi” turistik majmuasi qurilmoqda. Qariyb 25 gektar maydondagi majmuada 16 ta ko‘p qavatli uy, 3 ta mehmonxona, 2 ta supermarket, 60 dan ziyod savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, kafe va restoranlar, bank ofisi, akvapark, musiqali favvora, avtoturargoh bo‘ladi. Binolar tepasiga quyosh panellari o‘rnatiladi. Daryo ustida sayr uchun shishali ko‘prik quriladi.

Majmua kuniga 5 mingdan ortiq kishilarga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega bo‘ladi. Mavsumiylari bilan birga 2 ming 500 ta ish o‘rni yaratiladi.

Prezidentimiz xizmat turlarini ko‘paytirib, faol turizmni rivojlantirish, bunday majmualarni boshqa tumanlarda ham loyihalashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Hududda ekologiyaga alohida e’tibor berish, yashillikni ko‘paytirish muhimligi ta’kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Bo‘stonliq tumanida barpo etilayotgan “Ugam River” turistik majmuasini ham borib ko‘rdi.

Ugom daryosi bo‘yidagi bu maskan ilgari to‘la foydalanilmagan, toshloq joy edi. Bu yil 1 trillion so‘mlikdan ziyod loyiha doirasida qariyb 14 gektar maydonda qurilish boshlandi. Hozirda 17 ta ko‘p qavatli uy qad ko‘tarmoqda. Ular 5, 6 va 7 qavatli, 870 xonadondan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, 16 ta kottej, 3 ta restoran, yigirmadan ortiq savdo va xizmat shoxobchalari quriladi. Bolalar o‘yingohlari, yopiq suv havzasi, fitnes va sport maydonchalari, amfiteatr, avtoturargoh, avtomobil ko‘prigi, tog‘ va sohil bo‘yi yo‘laklari ham tashkil etiladi.

Ushbu qulayliklari bilan yangi majmua yiliga 200 ming nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko‘rsata oladi. Bu tumanning turizm salohiyatini yanada oshiradi. Birinchi bosqich — ko‘p qavatli uylarni kelayotgan yilning boshida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari shunday xonadonlardan birini kirib ko‘rdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

2

Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизмати сурати.

O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Avvalo, ushbu qutlug‘ ayyomda siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Hech shubhasiz, bu yilgi Konstitutsiya bayramining alohida ruhi va shukuhi borligini bugun barchamiz chuqur his etib, anglab turibmiz. Bu, birinchi navbatda, mazkur ayyomning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda katta o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan tarixiy bir sharoitda o‘tayotgani bilan bog‘liq, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Ayniqsa, shu yil 27-oktyabrda Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga ochiqlik va raqobat ruhida o‘tgan saylovlar yangilangan Asosiy Qonunimizni hayotga tatbiq etish yo‘lida g‘oyat muhim qadam bo‘lganini yana bir bor ta’kidlash lozim.

Mehnatkash, oliyjanob va bag‘rikeng xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi xohish-irodasi, birligi va hamjihatligi, siyosiy madaniyati yaqqol namoyon bo‘lgan ushbu saylovlar natijalariga ko‘ra, yurtimizda konstitutsiyaviy huquq va vakolatlari kuchaygan, mas’uliyati bir necha karra ortgan yangi vakillik tizimi shakllangani albatta barchamizni mamnun etadi.

Yana bir muhim jihati — hokimlar bir paytning o‘zida mahalliy Kengashlarga ham rahbarlik qilib kelgan amaliyotdan ushbu organlarga ilk bor deputatlar orasidan saylangan Kengash raisi boshchilik qiladigan yangi tizimga o‘tilmoqda.

Bundan tashqari, hokimlarning 30 dan ziyod vakolatlari mahalliy Kengashlarga o‘tkazilgani ijtimoiy hayotimizda demokratiya, xalqparvarlik tamoyillari tobora keng o‘rin olayotganidan dalolat beradi.

Biz “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy prinsipga amal qilgan holda, parlament va mahalliy Kengashlar vakolatlarini kengaytirish, ularning faolligini yanada oshirish, samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, bir so‘z bilan aytganda, ularni chinakam xalq ovoziga aylantirishga qaratilgan islohotlarimizni qat’iy davom ettiramiz.

Hurmatli do‘stlar!

Inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha Asosiy Qonunimizda muhrlab qo‘yilgan ustuvor tamoyillarni hayotimizga izchil tatbiq etish borasida yurtimizda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan so‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sgani, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 3 ming dollarga yetgani, kambag‘allik darajasi 23 foizdan 11 foizga tushgani, maktabgacha ta’limda qamrov 74 foizdan, oliy ta’limda esa 39 foizdan oshgani, hech shubhasiz, tarixiy natijadir.

Islohotlarni jadal davom ettirib, yangilangan Konstitutsiyamiz normalarini hayotga tatbiq etish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish, shu asosda aholi daromadlarini oshirish, oila va mahallalarda o‘zaro hurmat va ahillik muhitini mustahkamlash, keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Shuningdek, Asosiy Qonunimizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilanganidan kelib chiqib, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yangi uy-joylar, tibbiyot, ta’lim, madaniyat, san’at va sport maskanlarini barpo etish, yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Jumladan, sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 2 barobar ko‘paytirilib, tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish va aholini kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq ta’minlash ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Ta’lim sohasidagi dasturlarimiz doirasida yaqin yillarda oliygohlarda qamrov 50 foizga yetkaziladi. Birgina 2025-yilda bog‘cha va maktablarni ta’mirlash va yangilarini qurish uchun Davlat byudjetidan 4 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Yana bir muhim yo‘nalish — aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanib, 1 million fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish rejalashtirilmoqda.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiylashuvini oshirish va umuman jamiyatimizda inklyuzivlikni ta’minlash bo‘yicha ishlar ham yangi bosqichga ko‘tariladi. Pensiya tizimini isloh etish bo‘yicha ham zarur choralar ko‘riladi.

Ma’lumki, yangilangan Bosh qomusimizda fuqarolarning ekologiya sohasidagi huquqlari konstitutsiyaviy darajada belgilanib, davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan majburiyatlari alohida mustahkamlab qo‘yildi.

Kirib kelayotgan 2025-yilni mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilganimiz va bu borada katta vazifalarni aniq belgilab olganimiz ana shu konstitutsiyaviy qoida va prinsiplarni amalga oshirish uchun muhim asos bo‘ladi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, siz, aziz yurtdoshlarimni, butun xalqimizni ushbu yil bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda faol ishtirok etishga chaqiraman.

Hech qachon unutmaylik: tabiatni asrash — bu insonni, kelajakni asrash demakdir. Bebaho boyligimiz bo‘lgan serhosil dalalarimiz, zilol buloqlarimiz, daryo va ko‘llarimiz, tog‘ va adirlarimizni asrab, bog‘-u rog‘lar, yashil maskanlarni ko‘paytirsak, O‘zbekistonimiz yanada go‘zal diyorga aylanadi, avlodlarga bizdan ozod va obod Vatan qoladi.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Konstitutsiyamiz mamlakatimizda milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni saqlash, islohotlarimizning ortga qaytmas tus olishini ta’minlashda doimo ishonchli kafolat bo‘lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo‘lib qoladi.

Shu ma’noda, xalqimizning huquqiy tafakkuri, xohish-irodasining yorqin timsoli va amaliy ifodasi bo‘lgan Asosiy Qonunimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu noyob qomusning har bir moddasi va qoidasini o‘rganish, ularga hurmat, mehr va e’tibor bilan munosabatda bo‘lib, to‘laqonli ijro etish barchamiz uchun muqaddas burch va mezonga aylanishini istardim.

Aminmanki, ana shunday yuksak mas’uliyat bilan astoydil mehnat qilib, islohotlarimiz samarasini yanada oshiramiz va oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarga albatta yetamiz.

Siz, aziz yurtdoshlarimni Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Vatanimizning obro‘-e’tibori, shon-u shuhrati ziyoda bo‘lsin!

Barcha yutuq va g‘alabalarimizning ijodkori bo‘lgan xalqimiz omon bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QIRG‘IZISTON PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-dekabr kuni telefon orqali muloqotda Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovni tavallud kuni bilan samimiy qutladi.

Davlatimiz rahbari Qirg‘iziston yetakchisiga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlar, qardosh qirg‘iz xalqiga esa farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 700 million dollardan oshdi. Qo‘shma investitsiya fondi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda, mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Hududlararo va ishbilarmonlik aloqalari, madaniy almashinuvlar faollashdi.

Energetika va transport sohalarida yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalarini jadallashtirish muhimligi qayd etildi. Shu oyda Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish bo‘yicha loyihani boshlash mo‘ljallangan.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston Prezidentlari Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar va bo‘lajak qo‘shma tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

“G‘ELON” TURISTIK-REKREATSION ZONASINI VA XALQARO UMUMMAVSUMIY KURORTNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Respublikaning turistik salohiyatini oshirish bo‘yicha islohotlarni izchil davom ettirish, tog‘ va tog‘oldi hududlardagi ishga tushirilmagan mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga ekologik turizm infratuzilma obyektlarini barpo etish, shuningdek, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish orqali tog‘li va chekka hududlardagi aholi bandligini ta’minlash, ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

Qozon shahrida (Rossiya Federatsiyasi) 2023-yil 4 — 6-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan III hududlararo hamkorlik forumi doirasida Rossiya tomoni bilan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida **“G‘elon” xalqaro umummavsumiy kurort majmuasini tashkil etish” loyihasini** (keyingi o‘rinlarda — Investitsiya loyihasi) amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishilganligi;

(Davomi 2-betda).

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32-yilligi munosabati bilan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida **“Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmon**ni imzoladi.

Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan **483** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **107** nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, **275** nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **7** nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, **94** nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning **25** nafarini chet el fuqarolari, **32** nafarini ayol, **5** nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar, **274** nafarini yoshlar (shulardan, **104** nafari voyaga yetmaganlar) hamda **6** nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish yuzasidan mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 7-dekabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

“G‘ELON” TURISTIK-REKREATSION ZONASINI VA XALQARO UMUMMAVSUMIY KURORTNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Investitsiya loyihasi doirasida investor tomonidan Investitsiya loyihasini amalga oshirish davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni o‘z zimmasiga olgan holda dastlabki baholash bo‘yicha jami **300 million AQSH dollari** miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishi;

Investitsiya loyihasi 2024 — 2030-yillar davomida **uch bosqichda** amalga oshirilishi, bunda **2027-yil 1-yanvarga qadar** birinchi bosqichda investor tomonidan **100 million AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritilishi rejalashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligining:

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida umumiy yer maydoni **2,9 ming gektar bo‘lgan** “G‘elon” turistik-rekreatsion zonasini (keyingi o‘rinlarda — Turistik zona) tashkil etish;

Qashqadaryo viloyati hokimligi huzurida davlat muassasasi shaklida “G‘elon” turistik-rekreatsion zonasi direksiyasini (keyingi o‘rinlarda — Direksiya) tuzish;

Turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlarni hamda muhandislik infratuzilmalarini barpo etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Belgilansinki, Turistik zona faoliyat ko‘rsatish muddatini keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30-yilga tashkil qilinadi.

3. Quyidagilar:

“G‘elon” turistik-rekreatsion zonasi chegaralarining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

“G‘elon” turistik-rekreatsion zonasi hududini tizimli rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar **2-ilovaga** muvofiq;

“G‘elon” turistik-rekreatsion zonasi va unga olib boruvchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

Turistik zona hududidagi yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan va ijaraga berishdan kelib tushgan mablag‘lar auksion xarajatlari chegirib tashlangan holda Direksiyaning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkaziladi;

Turistik zonaning bosh rejasi va batafsil rejalari loyihalarini ishlab chiqish hamda konsalting kompaniyalari, mahalliy va xorijiy ekspertlar hamda boshqaruv kompaniyalari xizmatlari uchun haq to‘lash Tog‘li va olis hududlarda turistik infratuzilmani rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

Jamg‘arma hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar “Chorvoq” turistik-rekreatsion zonasi direksiyasi va Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan tasdiqlanadigan grafik asosida Turistik zona hududidagi yer uchastkalarini elektron onlayn auksion orqali realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar hisobidan qoplanadi;

Turistik zona investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xarajatlari belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning texnik-iqtisodiy asoslariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Qashqadaryo viloyati hokimligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Kadastr agentligi hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

ikki oy muddatda Turistik zona faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari yuzasidan Hukumat qarori loyihasi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini;

2025-yil 1-iyunga qadar Turistik zonaning bosh rejasi va batafsil rejalari loyihalari ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini;

2025-yil 1-oktyabrga qadar Direksiya tomonidan Turistik zonani rivojlantirishni nazarda tutuvchi master reja ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta’minlasin.

6. Belgilab qo‘yilsinki:

Turistik zonadagi turistik infratuzilmani yaratish imkoniyati bo‘lgan yer uchastkalari keyinchalik samarali foydalanish va (yoki) investorlarga realizatsiya qilish uchun doimiy foydalanish huquqi bilan Direksiyaga o‘tkaziladi;

Turistik zona hududidagi yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘lar Direksiya faoliyatini moliyalashtirish hamda tog‘ turizmi loyihalarini amalga oshirish, jumladan, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va ta’mirlash chora-tadbirlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi;

Turistik zona hududida hamda Investitsiya loyihasi doirasida umummavsumiy turistik obyektlarni qurish va ulardan foydalanish, ushbu obyektlarning Turistik zonaning bosh rejasiga muvofiqligi Direksiya tomonidan nazorat qilinadi;

Direksiya Turistik zona hududida umumiy foydalanishdagi yo‘llar va tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish hamda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi hisoblanib, yo‘l va tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini Turistik zonaning chegaralarigacha yetkazib berish majburiyatini bajaradi;

Direksiya loyiha kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga muvofiq Turistik zona hududida zarur infratuzilma obyektlari barpo etilishini ta’minlaydi.

7. Qashqadaryo viloyati hokimligi **bir oy muddatda**:

Direksiyani Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani “Miraki” MFY Furqat ko‘chasi 1-uy manzili bo‘yicha joylashtirilishini ta’minlasin;

Direksiya faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, joylashtirish, asosiy vositalar, anjomlar va transport vositalari bilan ta’minlash uchun qonunchilikda taqiqlanmagan manbalar hisobidan zarur mablag‘lar ajratsin.

8. Qashqadaryo viloyati hokimligi Kadastr agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda Turistik zona hududidagi yer uchastkalari, bino va inshootlar hamda daraxt va butalar to‘liq xatlovdan o‘tkazilishini, mavjud daraxt va butalar belgilangan tartibda muhofazaga olinishini;

uch oy muddatda yer uchastkalari olib qo‘yilishi va (yoki) bino hamda inshootlari buzilishi natijasida mulkdorlarga yetkaziladigan zararlar miqdoriga aniqlik kiritilishini;

baholash ishlarini tashkil etish uchun zarur hujjatlar, shu jumladan, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar to‘plami tayyorlanishi, baholovchi tashkilotlar jalb qilinishi va baholash to‘g‘risidagi hisobotlar ekspertizadan o‘tkazilishini;

yer uchastkalari olib qo‘yilishidan avval mulkdorlarga kompensatsiya to‘lovlari to‘liq hajmda to‘lab berilishini ta’minlasin.

Bunda:

yer uchastkalari egalariga yetkazilgan zarar qonunchilikda belgilangan tartibda qoplab beriladi;

Turistik zona hududida amalga oshiriladigan loyihalar uchun ajratiladigan yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklari o‘rnini qoplash bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlari loyiha tashabbuskorlari tomonidan qoplab beriladi.

9. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Turizm qo‘mitasi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi Investitsiya loyihasi doirasida:

umumiy uzunligi **33 km** bo‘lgan Hisorak — G‘elon, Hisorak — Sarchashma avtomobil yo‘lini ikki tasmali qilib, Chiroqchi — Sho‘rquduq avtomobil yo‘lining **30 km** qismini uchinchi toifadagi yo‘l darajasigacha yetkazish bo‘yicha qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilishini;

Miraki — Hisorak avtomobil yo‘lini ikki tasmali qilib, uchinchi toifadagi yo‘l darajasigacha yetkazilishini;

ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlariga asosan Turistik zona chegaralariga qadar elektr energiyasi tarmog‘ini tortish va podstansiya barpo etish, shuningdek, ichimlik va oqova suv tarmoqlarini o‘tkazish ishlari amalga oshirilishini ta’minlasin.

Bunda tashqi infratuzilma bilan ta’minlash xarajatlarini moliyalashtirish va buyurtmachilarni belgilash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5233-son hamda 2024-yil 5-iyundagi “Respublika hududlarining turizm salohiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–212-son qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi:

a) Energetika vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Transport vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “O‘zsuvta’minot” AJ bilan birgalikda **2025-yil 1-martga qadar** Investitsiya loyihasi doirasida obyektlarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ularni kelishish hamda ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish ishlarini yakunlasin;

b) Qashqadaryo viloyati hokimligi hamda Turizm qo‘mitasi bilan birgalikda:

Turistik zona hududida turistik infratuzilma obyektlarini barpo etish uchun nufuzli tashkilotlarni, shu jumladan, salohiyatli xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish;

istiqbolli va ustuvor loyihalar ro‘yxatini shakllantirish, Turistik zona hududida dastlabki turizm, yo‘l-transport infratuzilmasi hamda kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari va grantlarini jalb qilish choralarini ko‘rsin.

11. Turizm qo‘mitasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda **2025-yil 1-aprelga qadar** Turistik zona brendini yaratib, respublika hududida hamda xorijiy davlatlarda keng targ‘ib qilish choralarini ko‘rsin.

12. Qashqadaryo viloyati hokimligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi:

Shahrisabz tumanida Turistik zona hududi doirasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning yer fondi toifalarini o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va o‘rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Hukumat komissiyasiga kiritsin;

Turistik zona hududida yo‘l ko‘rsatkichlarini o‘rnatish va namunaviy sanitariya-gigiyena shoxobchalarini joylashtirish hamda chiqindilarni tashlash nuqtalarini belgilasin;

Turistik zona hududida maishiy chiqindilarning hosil bo‘lishini minimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qattiq maishiy chiqindilarni alohida yig‘ish va olib chiqib ketish ishlarini tashkil etsin;

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya bilan birgalikda Turistik zona hududida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka qat’iy rioya etilishi yuzasidan ekologik nazoratni o‘rnatsin.

13. Ichki ishlar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda Turistik zona hududida Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasining mavjud shtat birliklari hamda ish haqi jamg‘armasi doirasida xavfsizlikni ta’minlash bo‘limini tashkil etish dasturini tasdiqlasin.

14. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga qishki sport turlarini ommalashtirishga qaratilgan maqolalar chop etish va mavzuli teledasturlarni efirga uzatish tavsiya etilsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari J.A.Xodjayev hamda Qashqadaryo viloyati hokimi M.B.Azimov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 5-dekabr

TOSHKENT VILOYATINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YIRIK LOYIHALAR IZCHIL DAVOM ETTIRILADI

1

Sayyohlar ko‘proq chiroyli tabiatga, toza havoga intiladi. Shuni inobatga olib mavjud daraxtzorga qo‘shimcha 20 ming tup ko‘chat o‘tqaziladi. Zamonaviy texnologiyalar vositasida kuniga 1 ming metr kub daryo suvi qayta ishlanadi. 2 megavattlik termal isitish va sovitish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Prezidentimiz soha mutasaddilariga hudud targ‘ibotini kengaytirib, bunday maskanlarga sayyohlarni jalb etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Turizm loyihalari tufayli ish o‘rinlari ko‘paymoqda. Shu bilan birga, aholining an’anaviy shakllangan kasb-hunarlarini ham asrash kerakligi ta’kidlandi. Masalan, tuman asal, limon yetishtirish uchun mos. Ularni rivojlantirish tabiiy muhitni asrab-avaylash nuqtayi nazaridan ham muhim.

Davlatimiz rahbari Bo‘stonliq tumaniga tashrifi chog‘ida “Ugom-1” kichik gidroelektr stansiyasini ko‘zdan kechirdi.

Mamlakatimizda energiya quvvatlarini oshirishda barcha manbalardan foydalanilmoqda. Xususan, hududlarda kunlik energiya ta’minotida gidroenergetika qulay va samarali. Ular umumiy tarmoqqa ulanmasdan har bir hudud va mahalla kesimida elektr bilan ta’minlay oladi. Olinadigan elektr tannarxi ham boshqa manbalarga nisbatan ancha arzon. Shu bois keyingi yillarda bu sohani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda 630 million dollar investitsiya hisobidan 400 megavattdan ortiq yangi gidroelektr stansiyalari barpo etilib, ularning quvvati 2,2 gigavattga yetkazildi.

Toshkent viloyatida umumiy quvvati 1 ming 330 megavatt bo‘lgan 25 ta gidroelektr stansiyasi mavjud. Bu respublikamizdagi jami gidroenergetika quvvatining 60 foiziga tengdir. Bugungi kunda qiymati 880 million dollar va quvvati 340 megavatt bo‘lgan yana 4 ta GES qurilmoqda. Shuningdek, 2028-yilgacha viloyatda umumiy quvvati qariyb 2 ming 400 megavatt bo‘lgan, 4 milliard 800 million dollarlik 23 ta loyiha amalga oshiriladi.

Quvvati 1,48 megavatt bo‘lgan ushbu “Ugom-1” kichik GES qurish orqali yiliga 11,8 million kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoni yaratildi. Zamonaviy samarador gidroagregatlar va avtomatik boshqaruv tizimi o‘rnatildi. E’tiborlisi, bunda to‘liq mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlatilgan.

Loyihani amalga oshirish natijasida hududdagi Chorbog‘, Xumson va Ugom mahallalaridagi 5 mingta xonadon hamda turizm va dam olish maskanlari uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Yiliga qariyb 4 million metr kub gaz tejaladi.

Hozircha Ugom daryosida ikkita kichik GES qurildi. Ularning har biridan yiliga ikki yuz milliard so‘m daromad olinyapti. Suv oqimidan takror-takror foydalanish orqali bunday stansiyalarni o‘ntagacha yetkazish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bu bilan nafaqat energetika masalasi hal bo‘ladi, balki hudud infratuzilmasi ham yaxshilanadi. Tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi korxonalari paydo bo‘ladi.

Davlatimiz rahbariga hududlarda rejalashtirilgan loyihalar haqida ma’lumot berildi.

Sohaga xorijiy investitsiya va xususiy sektorni jalb qilib, 2030-yilga qadar jami quvvatlarni 6 ming megavattga yetkazish belgilangan. Buning uchun huquqiy, iqtisodiy sharoitlar yaratilgan. Jumladan, mamlakatimiz bo‘yicha ikki mingtagacha mikro va kichik GESlar qurish imkoniyati bor.

Prezident Bo‘stonliq tumanida tashkil etilayotgan yangi turizm maskanida bo‘ldi.

Bu yerda zarur infratuzilma yaratilib, kapsula shaklidagi uylardan iborat zamonaviy dam olish maskani barpo etilmoqda. Shuningdek, restoranlar, dor yo‘llari va chang‘i uchish maydonlari bo‘ladi.

Oynavand kapsula uylarning o‘ziga xos tomoni, ular yengil, ko‘chma, kamxarj. Katta qurilish qilinmasligi bois tabiatga ham ziyon yetkazmaydi.

Davlatimiz rahbari bunday uylarni Baxmal, Shahrisabz, Boysun kabi boshqa turizm maskanlarida ham o‘rnatish sayyohlar e’tiborini tortishini ta’kidladi.


Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbiri.

OZOD VA OBOD HAYOTIMIZNING MUSTAHKAM HUQUQIY ASOSI

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Shu kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirlari bo‘lib o‘tmoqda.

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida o‘tkazilgan tantanali bayram tadbiri ham ushbu qutlug‘ ayyomga bag‘ishlandi.



Shukuh

Tadbirda Prezident Administratsiyasi mas’ul xodimlari, Oliy Majlis Senati a’zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, hukumat a’zolari, fan, madaniyat, san’at, sport namoyandalari, ishlab chiqarish ilg‘orlari, tadbirkorlar va turli sohalarda mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz, yoshlar ishtirok etdi.

Bayram tadbiri avvalida Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov davlatimiz rahbarining 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigini o‘qib eshittirdi. Yig‘ilganlar ushbu tabrikni katta hayajon bilan tinglab, gulduros qarsaklar bilan kutib oldi.

Shundan so‘ng Davlat madhiyasi yangradi, yig‘ilganlar esa unga jo‘r bo‘lib butun zalga yuqori kayfiyat ulashdi.

Aytish joizki, joriy yilgi Konstitutsiya ayyomi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda katta o‘zgarishlar ro‘y berayotgan tarixiy bir sharoitda o‘tayotir. Xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish esa Asosiy Qonunimizning ustuvor maqsadidir.

Shu ma’noda, keyingi yillarda mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha Konstitutsiyada muhrlab qo‘yilgan ustuvor tamoyillarni hayotimizga tatbiq etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Davlatimiz rahbarining tabrigida ta’kidlanganidek, yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati bilan oxirgi yillarda iqtisodiyotimiz ikki karra o‘sdi. Shuningdek, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad uch ming dollarga yetib, kambag‘allik darajasi 23 foizdan 11 foizga tushdi. Maktabgacha ta’limda ham, oliy ta’limda ham qamrov sezilarli darajada oshgani, bu — tarixiy natija.

Yana bir muhim jihat, joriy yilning 27-oktyabrida Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga ochiqlik va raqobat ruhida o‘tgan saylovlar yangi tahrirdagi Bosh qomusimizni hayotga tatbiq etish yo‘lida g‘oyat muhim qadam bo‘ldi. Xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi xohish-irodasi, birligi va hamjihatligi, siyosiy madaniyati yaqqol namoyon bo‘lgan ushbu saylovlar natijalariga ko‘ra yurtimizda konstitutsiyaviy huquq hamda vakolatlari kuchaygan, mas’uliyati bir necha karra ortgan yangi vakillik tizimi shakllangani diqqatga sazovordir.

Tabrikda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash, shu orqali fuqarolarni kambag‘allikdan chiqarish rejalashtirilgani, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi, pensiya tizimini isloh etish, ekologiya va boshqa sohalarda ham ko‘plab istiqbolli loyihalar amalga oshirilishi alohida ta’kidlandi.

2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilingani va bu borada bajarilishi zarur bo‘lgan ishlar ham sanab o‘tilishi bilan birga, ushbu ulkan vazifalar ijrosi konstitutsiyaviy qoida va prinsiplarni amalga oshirish uchun muhim asos bo‘lishi qayd etildi.

Zero, Konstitutsiyamiz islohotlarimizning ortga qaytmas tus olishini ta’minlashning ishonchli kafolatidir.

Bayram tadbiri Vatanimizni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar bilan davom etdi.

Rahim SHERQULOV
(“Xalq so‘zi”).

So‘z — tadbir ishtirokchilariga

Ortiqboy ESHONQULOV,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi akademik litseyi direktori, biologiya fanlari doktori, professor,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi:



— Konstitutsiya kelajagimizni, taraqqiyotimizni belgilab beradigan muhim hujjat. Bugungi tadbirda davlatimiz rahbarining tabrigini katta hayajon bilan eshitdim. Chunki har doim Prezidentimiz boshqa sohalar bilan birga ta’limdagi islohotlar va bu yo‘nalishda qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi.

Bu gal ham shunday bo‘ldi. Tabrikda ta’lim sohasidagi dasturlarimiz doirasida yaqin yillarda oliygohlarda qamrov 50 foizga yetkazilishi qayd etildi. Bu — katta muvaffaqiyat. Chunki ta’limga e’tibor berilsa, jamiyatimiz yanada rivojlanaveradi.

Birgina misol, bizning ta’lim muassasamizda keyingi o‘n yilda 80 dan ziyod o‘quvchilarimiz xalqaro fan olimpiadalari g‘olibi bo‘ldi. Bu yurtimizda ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor va albatta, Konstitutsiyamiz sharofatidan deb bilaman.

Ilmira ROZIQOVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori:

— Bayram juda ko‘tarinki ruhda o‘tdi. Bugungi tadbirda Prezidentimiz tabrigini tinglab, tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e’tibor bundan buyon ham ustuvorlik kasb etishini angladim.

Ayni paytda sohada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Misol uchun, bizning markazimiz xodimlari allergik kasalliklarni bartaraf etish borasida barcha imkoniyat yaratilgan sharoitlarda faoliyat olib borishayotir.



E’tiborlisi, markazimizga 140 o‘rinli yangi bino qurib berildi. Tashxislash uskunalarimiz ilg‘or texnologiyalar asosida jihozlangan. Xodimlarimiz esa xorijga borib malaka oshirib kelishyapti. Xususan, bu yil Rossiyada 10 nafar xodimimiz malaka oshirib qaytdi. Umuman, bularning zamirida davlatimizning e’tibori va Bosh qomusimizda aholining tibbiy xizmatdan foydalanishi mustahkam kafolatlangani turibdi, desam, adashmayman.

Serikboy USENOV,
Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi “Islomobod” MFY raisi:



— Yurtimizda bayram shukuhi kezmoqda. Xususan, bizning mahallada ham ayyom arafasida qator tadbirlar tashkil etildi. Ularda ijtimoiy himoyaga muhtojlarga alohida e’tibor qaratyapmiz.

Prezidentimiz tabrigida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash uchun 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanishi qayd etildi. Bu — juda katta e’tibor.

Albatta, jamiyatimiz mahallalardan, oilalardan tashkil topgan ekan, biz ham davlatimiz rahbariga ko‘makdosh bo‘lib, Konstitutsiyamizda belgilangan insonparvarlik tamoyillariga amal qilib faoliyat yuritamiz. Zotan, mahallaning odamlarning dardini, muammolarini eshitib, ularni hal qiladigan noyob tuzilma, degan nomiga munosib mehnat qilish asosiy vazifamiz.

Konstitutsiyamiz qabul qilinganining o‘ttiz ikki yillik bayrami doirasida “Konstitutsiyaviy huquq oyligi” o‘tkazilmoqda.

OLIY MAJLIS SENATIDA



FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan “Fuqarolik jamiyati haftaligi” doirasida davra suhbati tashkil etildi.

Tadbirda fuqarolik jamiyati institutlarining hayotimizda tutgan o‘rni va ahamiyati, davlat organlarining ular bilan ijtimoiy sheriklik asosida hamkorligining muhim jihatlari yuzasidan so‘z yuritildi.

Ishtirokchilar o‘z chiqishlarida mamlakatni modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyati institutlari katta o‘rin tutishi, so‘nggi yillarda ularni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidlab o‘tdi.

Adolatli huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasi ustuvor maqsadlardan biri ekanligi aytildi. Bu borada keyingi yillarda qabul qilingan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining erkin, barqaror va tizimli rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratganligi qayd etildi.

Davra suhbatida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari muhokama qilingan masalalar yuzasidan o‘z taklif va mulohazalarini bildirdi.

BOSH QOMUS HAQIDA QIZG‘IN SUHBAT

Parlament yuqori palatasida “Senator va yoshlar” shiori ostida Toshkent shahar yuridik texnikumi o‘quvchilari bilan “Konstitutsiya: yoshlar nigohida” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan tadbirda yangi tahrirdagi Konstitutsiya, uning yaratilish tarixi va mazmun-mohiyati xususida so‘z yuritildi.

Ta’kidlanganidek, Asosiy Qonunimiz shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. U zamonaviy o‘zbek davlatchiligining fundamental asoslarini aniqlab beradi, tenglik, qonuniylik va inson huquqlarining mutlaq ustuvorligini ta’minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo‘llarini keng ochib bergani bilan ahamiyatlidir.

Muloqot chog‘ida Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplarini joriy qilish, inson huquq va erkinliklarini himoyalashning yangi mexanizmlarini tatbiq etish belgilab berilganiga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbirda, shuningdek, ta’lim va ilm-fan sohasidagi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar, bepul umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limi kafolatlari, akademik erkinlik va inklyuziv ta’lim kabi muhim yo‘nalishlar muhokama qilindi.

O‘quvchilar bilan suhbat davomida ularning parlament yuqori palatasi faoliyati bo‘yicha qiziqtirgan savollariga javob berilib, o‘zaro fikr almashildi.

Uchrashuvdan so‘ng o‘quvchilar Senat binosi va faoliyati bilan tanishdi.

“Xalq so‘zi”.

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASIDA

DEPUTATLAR DAVLAT BUDJETI IJROSINI KO‘RIB CHIQDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda deputatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining 2024-yil 9 oyidagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqdilar.

Ta’kidlanganidek, Prezidentimiz tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar, ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish va xalq farovonligini oshirish borasidagi eng dolzarb masalalar o‘z vaqtida belgilab berilgani va ularni hal etishning pragmatik yechimlari ko‘rsatib o‘tilganligi sababli hisobot davrida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minlangan.

2024-yilning 9 oyida mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’ati 6,6 foizni tashkil etdi. Shundan sanoat ishlab chiqarish 7,0 foizga, qurilish ishlari 9,0 foizga va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish 3,1 foizga ko‘paygan.

Ayniqsa, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 343,1 trln. so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 31,0 foiz o‘sganligi alohida e’tiborga molik. Aholining real daromadlari 7,7 foiz, o‘rtacha ish haqi 16,4 foiz oshgan. Bu inflyatsiya darajasidan (6,8 foiz) yuqori bo‘lib, aholi farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytilganidek, joriy to‘qqiz oyda Davlat budjeti daromadlari 193,6 trln. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 18,9 foizga oshgan va deyarli barcha soliq turlari bo‘yicha belgilangan reja ko‘rsatkichlari to‘liq bajarilgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari soni tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar natijasida o‘tgan yildagiga nisbatan qariyb 37,2 mingga oshib, 848,4 mingtaga yetgan. Foyda va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar soni o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 24,2 foiz ortgan.

Davlat budjeti xarajatlari hisobot davrida 219,3 trln. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagiga nisbatan 9 foiz o‘sgan.

Hisobot davrida aholini sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida ijtimoiy soha xarajatlari uchun Davlat budjetidan 107,8 trln. so‘m



(umumiy xarajatlarning 49,2 foizi) yoki o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 9,5 trln. so‘m ko‘p mablag‘ yo‘naltirilgan.

Bunda umumta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga ajratilayotgan mablag‘larning yildan-yilga o‘sib borishi ushbu sohalarda mehnatga haq to‘lash miqdorining oshirilishiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qanoatlantirish maqsadida oz muddat qolayotgan bir paytda obyektlardagi ishlarni tugatish kechikayotganligi tanqid ostiga olindi.

Shuningdek, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda kanallarni betonlashtirish uchun budjetdan ajratilgan 1,4 trln. so‘m mablag‘lardan foydalanishdagi kamchiliklar ham aytib o‘tildi.

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi joriy yilning 9 oyi yakunlariga ko‘ra respublika budjetidan ipoteka kreditlari bo‘yicha qariyb 1,0 trln. so‘m subsidiyalar ajratilgan.

Deputatlar erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining mablag‘laridan maqsadli foydalanish borasida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganiga ham e’tibor qaratdi.

Xususan, muhokama davomida O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi deputatlari ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga asosan joriy yilda ijtimoiy obyektlarni qurish va ta’mirlash ishlariga ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirish darajasi pastligiga e’tibor qaratdi. Yil yakunlanishiga



a’zolari mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning sifatli ta’lim olish, kasb-hunarga o‘qitish, asbob-uskunalar xarid qilish va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratilayotganini ijobiy baholashdi. Biroq hisobotda “yoshlar daftari”ga kiritilgan yigit-qizlarga ularning amaliyotni o‘tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari darajasida har oylik subsidiyalar ajratish ko‘zda tutilgani, ammo vazirlik ushbu mablag‘lardan foydalanmaganligi tanqid qilindi.

Bundan tashqari, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash eng dolzarb vazifalardan biri ekanligiga qaramay ushbu maqsadda amalga oshirilayotgan loyihalarga Davlat budjetidan 1,3 trln. so‘m hamda xalqaro moliya institutlaridan 300 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratilganligi, ammo mazkur mablag‘larning yarmi ham o‘zlashtirilmaganligiga e’tiroz bildirildi.

Majlisda “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zolari joriy yilda Sog‘liqni saqlash vazirligida reja 89,5 foizga, jumladan, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash uchun xarajatlar 68,3 foizga, buyrak va jigar transplantatsiyasi bo‘yicha jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan bemorlarni dori vositalari bilan ta’minlash uchun xarajatlar 62,9 foizga, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun xarajatlar 49,3 foizga bajarilganini tanqidiy baholadilar.

Shuningdek, tashabbusli budjetlashtirish tadbirlari doirasida 1,5 mingdan ortiq ovoz to‘plagan, lekin Qolib deb topilmagan jihozlash bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan 60 mlrd. so‘m mablag‘ umuman o‘zlashtirilmaganligi bo‘yicha vazirlikka e’tiroz bildirildi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a’zolari yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilayotgani, bu borada bajariladigan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari, manbalari va yechimlari davlat rahbari tomonidan aniq belgilab berilganini e’tirof etdi. Lekin mazkur maqsadlarni bajarish uchun Davlat budjetidan yo‘naltirilgan mablag‘lar va ularning natijadorligiga oid ma’lumotlar hisobotda alohida keltirilmaganligini ta’kidlashdi.

Shu bilan birga, qish mavsumida aholini elektr energiyasi bilan ta’minlash masalalari deputatlar e’tiborida bo‘lib, ayrim ijtimoiy obyektlarga elektr tarmoqlarini tortish ishlari kechiktirilayotgani tanqid qilindi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi deputatlari paxta xomashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish bo‘yicha xarajatlarning bir qismi Davlat budjetidan qoplab berilayotganligini ijobiy baholadilar. Ayrim hollarda xarid qilinayotgan sug‘orish tizimi anjomlarining sifatsizligi hamda pudratchilar tomonidan bajarilgan ishlar talabga javob bermayotganligi yuzasidan e’tirozlarini bayon etishdi.

Deputatlar joriy yil yakuniga qadar Davlat budjetining qonunda belgilangan parametrlarga to‘liq rioya qilgan holda ijro etilishini ta’minlash, budjet mablag‘laridan tejamkorlik bilan foydalanish, xarajatlarning natijadorligiga erishish borasida Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish zarurligini ta’kidladilar.

Muhokamada deputatlar tomonidan bildirilgan e’tirozlar, taklif va tavsiyalar tegishli vazirlik hamda idoralar tomonidan qabul qilinib, berilgan barcha savollarga atroflicha javob qaytarildi.

Savol-javoblardan keyin Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2024-yil 9 oydagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobot yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Fraksiyalar pozitsiyasi

MAJLISDA MAZKUR MASALA YUZASIDAN SIYOSIY PARTIYALAR FRAKSIYALARINING POZITSIYALARI BILDIRILDI

O‘zLiDeP fraksiyasi soliq organlarining xulosalariga asosan, qo‘shilgan qiymat solig‘ining 500,0 mln. so‘mgacha bo‘lgan qismini tadbirkorlik subyektlariga avtomatik tarzda to‘lab berish yo‘lga qo‘yilganligini ijobiy holat sifatida baholashini ma’lum qildi. Biroq kelgusida mamlakatda yanada jozibador investitsiyaviy muhitni shakllantirish maqsadida iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirib borish zarur.

Fraksiya Hukumat tomonidan olib borilayotgan byudjet-soliq siyosati mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va qulay tadbirkorlik muhiti yaratilishiga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

“Milliy tiklanish” DP fraksiyasi o‘z g‘oya va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya, turizm, madaniyat va san’at, umuman, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Shu bilan birga, byudjetdan mazkur maqsadlar uchun ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish kerakligini ta’kidlashdi.

“Adolat” SDP fraksiyasi uzoq yillar davomida moliyalashtirish manbalari noaniq bo‘lib kelgan tarmoqlarga, ya’ni bolalarni vaksinatsiya qilishga 233,6 mlrd. so‘m, onkologiya xizmatini yanada rivojlantirishga 94,4 mlrd. so‘m byudjet mablag‘lari yo‘naltirilganligi partiyaning dasturiy maqsadlariga mos ekanligini qayd etdi.

Fraksiya sog‘liqni saqlash sohasiga, davlat dasturlari ijrosiga ajratilayotgan mablag‘larning to‘liq va maqsadli bajarilishiga erishish muhim, deb hisoblashini bildirdi.

O‘zXDP fraksiyasi Davlat byudjetining joriy to‘qqiz oydagi ijrosi yakunlari bo‘yicha hisobot fraksiya yig‘ilishida tahliliy o‘rganib chiqilib, Davlat byudjeti daromadlari o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 19 foizga yoki 30 trln. so‘mga ortganini muhim natija sifatida qayd etdi.

Fraksiya Hukumat ayrim masalalarga alohida e’tibor qaratishi, jumladan, norasmiy sektordagi daromadlarni legallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozimligini ta’kidladi. Bu haqda ko‘rilayotgan choralar, erishilayotgan real natijalar yuzasidan kelgusida batafsil axborot berib borishni tavsiya etdi. Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilgan mablag‘larni o‘z vaqtida o‘zlashtirish va natijadorligini ta’minlashda vazirliklarning mas’uliyatini oshirish lozim, deb hisoblashini ma’lum qildi.

Ekologik partiya fraksiyasi yashil bog‘lar va yashil jamoat parklarini tashkil qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni e’tirof etgan holda mazkur tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali uyushtirish zarurligini ta’kidladi.

Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi xarajatlarni, xususan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, chiqindilarni yig‘ish, zararsizlantirish va utilizatsiya qilish, yerlarni suv va shamol eroziyasidan saqlash kabi ekologik tadbirlarni moliyalashtirish, ajratilgan mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq o‘zlashtirish hamda ulardan oqilona foydalanish zarur, deb hisoblashini qayd etdi.

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QO‘MITALARIDA

YER RESURSLARI — DOIMIY MUHOFAZADA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan “Yer resurslari — Konstitutsiya muhofazasida” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan yerga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi va davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga davlat tomonidan ko‘maklashish tizimi yaratilib, qo‘shimcha yer maydonlari foydalanishga kiritildi. Eng muhimi, aholiga yer uchastkalarini ajratishda barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartib joriy etildi.

Shuningdek, mamlakatimizda yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta’minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni o‘zlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, yer egalarining mulkiy huquqlari kafolatlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yil 9-oktyabr kuni imzolangan “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan mamlakatda yerga oid munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan islohotlarning huquqiy asosi yaratildi.

Tadbirda deputatlar keyingi yillarda sohaga doir amalga oshirilayotgan izchil islohotlarga alohida to‘xtalib, mamlakatimizda yerdan foydalanish borasida bozor mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo‘nalishdagi mulkiy va huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash, yer egalarining mulkiy huquqlarini kafolatlash Bosh qomusimiz orqali kafolatlanganini ta’kidladilar. Konstitutsiyada o‘z aksini topgan normalarning amaliyotga joriy etilishi kelajakda mulkdorlarga, xususan, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ularning yerga bo‘lgan mulk huquqini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashga imkon yaratishi, bu esa mulkdorlarning huquqlarini ishonchli himoyalash va kafolatlashga xizmat qilishi aytib o‘tildi.

Davra suhbatida Asosiy Qonunimizda hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum qilinishi mumkin emasligi aks etgani, bu, o‘z navbatida, bir necha yillardan buyon jamiyatimizdagi o‘tkir muammolardan biriga aylangan “snos” degan muammoga butunlay barham berganligi e’tirof qilindi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

FAROVONLIGIMIZ KAFOLATI

Qonunchilik palatasining Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “Konstitutsiya — ijtimoiy davlat kafolati” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Tadbirda Bosh qomusimizda inson qadrini ulug‘lash, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta’minlashga doir yangi qoidalar kiritilgani, jumladan, davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravar, aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar esa 4 karra ko‘paytirilgani qayd etildi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi, mehnat munosabatlarini tashkil qilishga qaratilgan huquqlarimiz yanada takomillashtirilgani ta’kidlandi.

Deputatlar Konstitutsiyada har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqliligi belgilab qo‘yilgani, bu esa, ijtimoiy davlatning inson huquqlarini ta’minlashda huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qilishini qayd etdilar.

Shuningdek, keyingi yillarda sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar doirasida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotgani, xususan, sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 300 dan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, hayotga tatbiq etilayotgani ta’kidlandi.

Qo‘mita a’zolarining aytishicha, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlami manfaatlari inobatga olinib, bugungi kunda u huquqlarimiz kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadbirda ishtirokchilar tomonidan farovon hayotimiz asosi bo‘lgan Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tildi.

“Xalq so‘zi”.

“Mahalla yettiligi” a’zolari bilan birgalikda har oyda mahallalarda “Teatr kuni” tadbirlari yo‘lga qo‘yiladi.



Shu kunlarda barchamiz huquq, erkinlik va qadriyatlarimizni qo‘llab-quvvatlovchi, demokratiyamizga asos bo‘lgan hamda xalqimiz siyosiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan hujjat — Konstitutsiya qabul qilinganini keng va ko‘tarinki ruhda nishonlamoqdamiz.

Darhaqiqat, Bosh qomusimiz har tomonlama chuqur o‘ylanib, milliy davlatchiligimiz tajribasi, jahonning eng ilg‘or yutuqlarini uyg‘unlashtirib, hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olib qabul qilindi.

MILLATNI BIRLASHTIRUVCHI HUJJAT

Nuqtai nazar

1992-yilda bizni, avvalambor, yangi mustaqil davlatni qanday oyoqqa turg‘azish, davlat hokimiyati organlarini shakllantirish masalasi ko‘proq bezovta qilgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ko‘proq inson qadri, uning uy-joyi, oilasi, ish bilan bandligi, shuningdek, kambag‘allikdan chiqarish, ijtimoiy himoya qilish masalalariga birinchi navbatda e’tibor qaratildi. Xususan, “propiska” muammosi, qarindoshi sudlanganligi, homiladorligi, bolasi borligi sabab ishga olmaslik, bolalar va majburiy mehnat, “snos” degan balo, yon qo‘shnilarimiz bilan “muzlagan” aloqalar — bular tarixda qoldi. Ular xalqimiz boshiga takroran muammo bo‘lmasligi uchun konstitutsiyaviy kafolatlar yaratildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muqaddimasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, huquqshunoslikdan xabari bor inson biladiki, muqaddima uncha-muncha qonun hujjatida bo‘lmaydi.

Ayniqsa, **Konstitutsiyaning muqaddimasi — bu shunchaki Konstitutsiyaning maqsadi emas, balki shu yurtdagi millionlab odamlarning orzu-umidlari, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z oldiga qo‘ygan marralari, jamiyat va davlatning o‘tmishi, buguni va kelajagini hisobga olgan holdagi intilishlari**, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Asosiy Qonunning falsafasi, konsepsiyasi, mag‘zi aynan muqaddimada mujassam. Qolgan barcha qoidalari ana shu maqsadlarga erishishning vositalari bo‘lib xizmat qiladi.

Shu ma’noda, Bosh qomusimizning **“Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi...”** deb boshlanuvchi muqaddimasining o‘ziyoq kishini beixtiyor to‘lqinlantiradi. Ko‘pchilikka yaxshi ayonki, zamonaviy dunyo konstitutsiyashunosligiga asos solgan AQSH Konstitutsiyasi ham “Biz Qo‘shma Shtatlar xalqi...” deb boshlangan.

“Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda”, bu so‘zlarni o‘qigan har bir vatandoshimizda beixtiyor yurt taqdiri uchun daxldorlik, o‘zaro birlik va ulug‘vor maqsad sari safarbarlik hissi yuzaga keladi.

Chunki Konstitutsiya bugungi avlodlar uchungina yaratilmaydi, balki cheklanmagan, hali biz uchun noma’lum bo‘lgan kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olgan holda tuziladi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, Konstitutsiya qabul qilingan 1992-yilda aholimiz soni 20 million 700 mingdan oshgan bo‘lsa, hozir 38 millionga yaqinlashmoqda.

Konstitutsiya muqaddimasidagi huquq ilmining mohiyatini tashkil etgan, insoniyat asrlar osha intilib kelgan **“demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqat”** niyatimiz ezguligini ko‘rsatib bermoqda. Bundan tashqari, **“davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib”**, degan so‘zlar Konstitutsiyamizni shakllantirishda qanday bebaho, boy merosga asoslanganimizni namoyon etmoqda.

Muqaddimada hozirgi dunyoda jamiki eng yaxshi qadriyatlar va maqsadlar bo‘lsa, barchasi mujassam.

Muqaddimani, ayniqsa, uning yakuniy qismini o‘qib, kishi ko‘ziga beixtiyor yosh keladi. O‘ylaymanki, Vatan taqdiriga daxldor hech bir inson bu satrlarni shunchaki o‘qiy olmaydi — **“jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda”**. Fikrimizcha, Konstitutsiya bayramlari arafasida bir qator davlatlar tajribasidan kelib chiqib, maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida, davlat xizmatiga kirishda muntazam ravishda Konstitutsiya muqaddimasini ommaviy o‘qishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Davlatimiz rahbari **xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak**, deb ta’kidlaydi. Uinston Cherchill ham **“hukumatlar fuqarolarning xizmatkori va shunday bo‘lib qolishi kerak, davlat faqat va faqat odamlarning hayot, erkinlik va baxtga intilishini ta’minlash uchungina tashkil qilingan”**, deb aytgan edi. Ushbu g‘oyalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muqaddimasidan tortib, har bir bo‘lim, boblarining mazmun-mohiyatiga singdirildi.

Xususan, Konstitutsiyaning 54-moddasida **“Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir”** deb aniq va tiniq yozib qo‘yildi.

Asosiy Qonunimizning 14, 20-moddalarida davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi, **insonning huquq va erkinliklari** qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning **mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi**, inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi **barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi** belgilab qo‘yildi.

Ilgarilari ba’zi mansabdor shaxslar tomonidan o‘z xodimlariga, fuqarolarga nisbatan haqorat qilib, so‘kinib gapirish holatlari ko‘p uchrardi. Asosiy Qonunimizning 26-moddasida bunday holatlarga kelgusida yo‘l qo‘ymaslik uchun **“Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas”**, degan qoida mustahkamlandi.

Huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatida ba’zi hollarda ayrim nopok shaxslar tomonidan aybsiz shaxslarni majburlab, qilmagan ishini bo‘yniga qo‘yish holatlari uchragan. Bunday holatlarga kelgusida toqat qilib bo‘lmasligidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning 28, 29-moddalarida **agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi** belgilab qo‘yildi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi alohida konstitutsiyaviy qoida sifatida mustahkamlab qo‘yildi. Mazkur qoida aksariyat insonlar uchun muhim bo‘lib, davlat organlari har bir insonning xatti-harakatiga alohida yondashishi, ular tomonidan sodir qilingan huquqbuzarlikning og‘ir-yengilligi, yetkazilgan zararning ko‘lami va xarakteridan kelib chiqib, mutanosib chora ko‘rishi va bunda maqsad jazolash emas, balki qonunda nazarda tutilgan maqsadga erishish bo‘lishi kerakligi ta’kidlanmoqda.

Prezidentimiz mutanosiblik prinsipi bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlagan edi: *“Mana, bir misol: fuqaroning ipoteka kreditidan 3 million so‘mlik uch oylik qarzi bor. Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, bank qarzdorni sudga beradi. Lekin bu masalada da’vo arizasi 3 million so‘m, ya’ni real qarz bo‘yicha emas, balki kreditning to‘lanmagan qismiga, deylik, 250 million so‘mga nisbatan beriladi. Sud arizani ko‘rib chiqib, qarzdordan 10 million so‘mdan ortiq davlat boji undirish va shartnomani bekor qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi. O‘zingiz o‘ylang, 3 million so‘mni to‘lay olmagan fuqaro 10 million davlat bojini qanday to‘laydi? Bunday mantiqsiz holatlarning oldini olish uchun yangi bir normani Konstitutsiyaga kiritish taklifini bildiraman”.* Ya’ni aynan ushbu mutanosiblikka oid qoida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan kiritildi.

Qayd etish joizki, mutafakkirlar aytganidek, agar mustaqil sud tizimi bo‘lmasa va ushbu konstitutsiyaviy huquqlar sudlar tomonidan himoyalanmasa, Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlar quruq gap bo‘lib qoladi.

Buning uchun, albatta, sudlar mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish talab etiladi.

Shuningdek, adolat va qonunning ustunligi nafaqat Konstitutsiya, sudlar, huquqshunoslar, advokatlar sa’y-harakatlari bilan ta’minlanadi, balki shu jamiyatning to‘laqonli a’zolari, Konstitutsiya himoyasi bilan ta’minlangan erkaklar va ayollarning qat’iyati, qonuniylikni himoya qilishlariga ham bog‘liq masaladir. Zero, Benjamin Franklin aytganidek, Konstitutsiya odamlarga baxtga intilish huquqini beradi, baxtga erishish esa o‘zingizga qolgan masaladir.

Agar jamiyatda odamlar kimdir kelib Konstitutsiya va qonun ustuvorligini o‘rnatib berishini kutib o‘tiradigan bo‘lsa, bunday jamiyatda qonuniylik o‘z-o‘zidan vujudga kelishi amrimahol. Millatning buyukligi Konstitutsiyaga sodiqligida, qonun ustuvorligiga rioya qilishida namoyon bo‘ladi.

Bunda huquq ilmi olimlarining ham o‘ziga xos mas’uliyatlari mavjud. Zero, hali-hanuz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bilan kirib kelgan “ijtimoiy davlat”, “huquqiy davlat”, “dunyoviy davlat”, “mutanosiblik prinsipi”, “ijtimoiy birdamlik”, “sukut saqlash huquqi” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ilmiy tadqiq qilinmadi. Shuningdek, ijtimoiy, dunyoviy davlat sharoitida jinoyat va ma’muriy huquq fanlari oldida turgan vazifalar ochib berilmadi.

Konstitutsiya shunchaki qog‘oz emas, bu bizni millat sifatida birlashtiruvchi tamoyillar aks etgan hujjatdir. Konstitutsiyadagi qoidalar yangi O‘zbekistonimizdagi tinchlik, ijtimoiy birdamlik, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikning, milliy birligimizning poydevorini tashkil qiladi. Konstitutsiyaga rioya etmaslik, unga putur yetkazish tinchligimiz, milliy birligimizga raxna soladi. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolatdir.

Miravzal MIRAKULOV,
yuridik fanlar doktori, professor.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH OQILONA YONDASHUVNI TALAB ETADI

Davlatimiz rahbarining kambag‘allikni qisqartirish borasidagi tashabbuslari haqida gap ketganda, sobiq ittifoq zamonida adabiyotda tilga olingan “konfliktsizlik nazariya” yodga tushadi. O‘sha paytlari “bizning ozod jamiyatda umuman qarama-qarshilik, salbiy holatlar bo‘lishi mumkin emas, shu ma’noda, adabiy asarlarda konflikt bo‘lmasligi kerak”, degan talab hukm surgandi.

Mushohada

Kambag‘allik mavzui ham uzoq yillar shunday holatda bo‘ldi — ro‘zg‘orini arang tebratayotgan, hamyoni nochor odamlar bor edi-yu, buni tan olish uyat sanalardi. O‘zbekiston Prezidenti faoliyatining ilk davrlaridanoq shu paytgacha mavjud bo‘lsa-da, tan olinmay kelingan bu muammoni ro‘yirost aytish, unga qarshi kurashish kerakligini baralla e’lon qildi. 2020-yildan boshlab kambag‘allik bilan kurashish mamlakat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Bu borada tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, kasbiy ta’lim va ehtiyojmand aholi bilan yangicha ishlash yo‘lga qo‘yildi...

O‘ylab ko‘raylik: odam nega kambag‘al bo‘ladi? Sabab izlasangiz, juda ko‘p izohlar aytiladi. Kimdir yaxshi daromad olish uchun bilimi va ma’lumoti yetmasligini aytsa, yana boshqa birovga hafsala bilan mehnat qilish uchun noshudlik yo‘l bermaydi.

Bir yili Toshkent viloyatining poytaxtga yaqin mahallasidagi xonadonda bo‘ldik. Biz borgan xonadon tabiatning naq bag‘rida joylashgan ekan. Lekin uy sohiblarining dangasaligi (bundan boshqa ta’rif topolmadik!) oqibatida nurab borayotgan imorat atrofi shu qadar to‘zib yotibdiki, bir ko‘rgandayoq kayfiyat tushar darajada. Vaholanki, bu joyni ko‘rkam maskanga aylantirish uchun hech qancha mablag‘ shart emas. Ozgina hafsala bilan mehnat qilinsa, olam guliston!..

Bunday misollar yurtimizda juda ko‘p uchraydi. Sababini so‘rasangiz, “kambag‘alchilik, qo‘limiz kalta”, deyishadi. To‘g‘ri, jamiyatda har xil tabiatli odamlar bor. Ba’zan ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Axir mehnatingiz uchun o‘zingizga o‘zingiz pul to‘lamaysiz-ku?!

Xo‘sh, daromadni ko‘paytirish, ro‘zg‘orga baraka kiritish uchun qanday yo‘l tutish kerak? Suhbatdoshimiz — “Nuroniy” jamg‘armasi Namangan viloyati bo‘limi rahbari, senator Ikromxon Najmiddinov bu haqda shunday deydi:

— Viloyatda yil oxirigacha 9 244 ta oilani kambag‘allikdan chiqaramiz, deb marra qilganmiz. Bu — qariyb 40 ming aholi, degani. O‘shanda kambag‘al oilalar ulushi 10,4 foizdan 7,8 foizga tushadi. Buning uchun 1 228 mas’ul xodim zimmasiga 6 140 ta oila biriktirilgan. Bugungacha fuqarolarning yashash sharoitlari o‘rganildi, oila a’zolarining bandligini ta’minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Masalan, o‘zim Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 5 ta oilani nazoratimga oldim, oila a’zolarining sog‘ligi, ijtimoiy holati, daromad manbai va bandlik darajasi, tomorqadan foydalanish, chorva mollarini asrash imkoniyatlari bilan qiziqdik. Bir oila tomorqasi ekin ekilmaganidan qaqrab yotibdi. Sababini so‘rasak, ekinlarni sug‘orish uchun suv yo‘q ekan. “Mahalla yettiligi” e’tiborini bu muammoga qaratdik. Ko‘pchilik bilan suv keltiriladigan bo‘ldi. Bir xonadonga hokim yordamchisi ishtirokida kredit rasmiylashtirildi. Yana bir oilaning 0,5 gektar maydonda bog‘i bor ekan. Unga agar yillik to‘lovni amalga oshirib borsa, ish staji yozilishi, bu esa pensiya olish uchun asos bo‘lishi tushuntirildi. Umuman, bu ishda odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish juda muhim.

So‘nggi yillarda aholi turmush sharoitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida qonunchilik ijrosi ustidan qat’iy prokuror nazoratini tashkil etish sohasida samarali ishlar qilinmoqda. Prokuratura organlari tomonidan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning kiritilishi ustidan izchil nazorat o‘rnatilgan.

Xususan, ijtimoiy ahvoli og‘ir bo‘lishiga qaramasdan reyestrga kiritilmay qolgan 74088 ta oilaning davlat ijtimoiy himoyasiga olinishi ta’minlangan. O‘rganishlar davomida “temir daftar”ga 522 nafar fuqaro noto‘g‘ri kiritilgani, 105 fuqaro asossiz chiqarilgani hamda 153 mln. so‘mlik mablag‘ talon-toroj qilingani aniqlangan. Shuningdek, 2321 mln. so‘mlik subsidiya mablag‘lari o‘z egalariga yetkazib berilmasdan o‘zlashtirib yuborilgani aniqlanib, bunday holatlar yuzasidan 14 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

O‘rganishlar natijasida hududlarda 5 tadan nochor oilalarga biriktirilgan rahbarlar hanuzgacha o‘z vazifalarini yetarlicha anglab yetmaganligi, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar talablari doirasida ish tashkil etmayotganligi yoki hozirgi kunga qadar o‘ziga biriktirilgan oilalarning ahvolini o‘rganmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Masalan, Qamashi tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi J. Abrayev va “O‘rtachim dehqon savdo” MCHJ rahbari M. Islomov o‘ziga biriktirilgan xonadonlardan umuman xabar olmagan. O‘shlar ishlari agentligi tuman bo‘limi rahbari B. Turdiyev hamda tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Z. Qandaharov o‘ziga biriktirilgan kambag‘al oilalarning ijtimoiy ahvolini o‘rganishga o‘z xodimlarini yuborish bilan cheklangan, xolos.

Yana bir holat — ayrim joylarda masala mohiyati o‘rganilmasdan kreditlar rasmiylashtirilmoqda. Oqibatda avvaldan iqtisodiy nochor xonadonlar kreditni va uning foizini to‘lolmasdan battar kambag‘allashmoqda. Shunday ekan, kambag‘allikni qisqartirish masalasida har tomonlama puxta o‘ylab ish ko‘rish talab etiladi. Zero, inson manfaatlari oqilona muhofaza qilingan joydagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Shuhrat JABBOROV
(“Xalq so‘zi”).

DUNYO HAFTA ICHIDA

“Airbus” tanglik qarshisida

“Airbus” Yevropa aerokosmik korporatsiyasi mudofaa-kosmik bo‘linmasidagi 2 mingdan ziyod ish o‘rinlarini qisqartiradi. Qisqarishlarning asosiy qismi Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Ispaniya hisobiga to‘g‘ri keladi.

Oktyabr oyida “Airbus” kosmik segmentda davom etayotgan qiyin biznes muhitini saqlab qolgan holda bo‘linmaning tashkiliy tuzilmasida o‘zgarishlarni rejalashtirayotgani haqida ogohlantirgandi. 5-dekabr kuni kompaniya bo‘linmaning 5 foizga yaqin shtati, ya’ni 2043 ta ish o‘rni qisqarishini ma’lum qildi.

Qayd etilishicha, ishdan bo‘shatiladiganlarning yarmidan ko‘pi — 1128 nafari kosmik segment hisobiga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchilarga jarima joriy qilindi

“Spiegel” nashrida yozishlaricha, Germaniyaning Nyurnberg shahridagi Dyurer gimnaziyasi kechikkan o‘quvchilarga jarima joriy etdi.

Agar o‘quvchi doimiy ravishda kechikib kelsa va bunga arzirli sabab bo‘lmasa, unga 5 yevro jarima solinadi. Gap shundaki, mazkur qoidalar 2024-yil may oyida joriy etilgan bo‘lib, o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsata boshladi. Jarima faqat 9 — 11-sinf o‘quvchilari uchun qo‘llaniladi.

“Forbes” nashrida yozishlaricha, mamlakatda uzrsiz sabablar bilan maktabga bormaslik uchun yanada qattiqroq jazo qo‘llanmoqda.

Dunyodagi eng yirik radioteleskop qurilmoqda

Xitoy Fanlar akademiyasining ma’lum qilishicha, mamlakat shimoli-sharqidagi Szilin o‘lkasida dunyodagi eng yirik to‘liq boshqariladigan radioteleskop qurilishi boshlandi.

Uning diametri 120 metr bo‘lib, olimlarga sayyoralar va asteroidlarni o‘rganishda yordam beradi. Qurilmani sozlash va sinovdan o‘tkazish ishlari 2028-yilgacha tugallanadi.

Eslatib o‘tamiz, radioteleskop qurilishi 2024-yilning may oyida boshlangan edi.

Kongoda noma’lum kasallik

Kongo Demokratik Respublikasining janubi-g‘arbiy viloyatida 143 kishi noma’lum kasallik oqibatida vafot etdi.

Bu haqda “Reuters” muxbiri xabar berdi.

Kvango viloyati gubernatorining o‘rinbosari Remi Saki va Sog‘liqni saqlash vazirligi rahbari Apolliner Yumbaning ma’lum qilishicha, kasallikka chalinganlarda gripp belgilari, jumladan, tana haroratining ko‘tarilishi va kuchli bosh og‘rig‘i kuzatilmoqda. Kasallik turini aniqlash uchun hududga shifokorlar brigadasi yuborilgan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, BMT vaziyatdan xavotirda va mamlakat hukumati bilan birga kasallikni o‘rganish ustida ish olib bormoqda.

Qayd etilishicha, kasallikdan, asosan, ayollar va bolalar jabr ko‘rmoqda.

Ar-Riyodda mashinistsiz metropoliten

Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyodda shu yil 1-dekabrdan metropoliten ishga tushdi. Ayni vaqtda metroning uchta tarmog‘i ochilgan, yanvarda yana bittasi, keyinroq esa ikkitasi ishga tushiriladi.

Yakunda jami metro yo‘lining uzunligi 176 kilometrga yetadi. Tizim har kuni 3,6 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Ta’kidlash kerakki, bu mashinistsiz boshqariladigan dunyodagi eng uzun metro hisoblanadi. “Poyezdlarning mashinisti yo‘q, ularning harakati tezlikni, ravonlik va xavfsizlikni nazorat qiluvchi zamonaviy tizim bilan himoyalangan, eshiklar avtomatik ochib-yopiladi. Metropoliten bekatlari va vagonlari ovoz kuchaytirgich hamda ma’lumotlar ekrani kabi ilg‘or tizim bilan jihozlangan”, deyiladi xabarda.

Metropolitenda Budapesht, Sidney va Taybeyda sinovdan o‘tgan 69 ta “Alstom Metropolis” va 47 ta “Innovia Metro” poyezdlari harakatlanadi.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TO‘LAGANOV tayyorladi.

2025/2026-o‘quv yilidan barcha davlat universitetlarida jamoaviy sport turlari bo‘yicha klublar tashkil etiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.50 Topshirildi — 01.05 1 2 3 4 5 6